




# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-IYUL (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 79-223-33-29**

***www.navstat.uz***


2022- yil yanvar-iyul oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 48 834,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,7 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 39 406,1 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 80,7 % ni tashkil etdi.




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 32,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 27,3 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 3,1 %, ga oshganidir.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda – 6,9 % ga pasayish kuzatildi.


### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 588,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 % ini tashkil etdi.




2022- yil yanvar-iyul oylarida



2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39 406,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,7 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 10,5 % (7,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,2 % (85,8 %) va quyi texnologiyali – 6,1 % (6,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 2,7 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 72,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 75,8 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 105,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 86,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,7 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,4 % (2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 85,5 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

2022- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 459,2 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 126,7 % ga o'sgan), 143,2 ming tonna azot mochevina (karbamid) (144,8 %), 3,0 ming tonna kalsiy xlorid (162,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Portlandsement, ming tonna.	2 202,4	1 728,1	- 474,3
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	98,9	143,2	44,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	36 705	35 731	-974
Sirka kislotasi, tonna.	2 518	2 240	-278
Kislorod, ming m <sup>3</sup> .	84,6	101,2	16,6
Suvsiz ammiak, ming tonna.	362,4	459,2	96,8
Kalsiy xlorid, ming tonna.	1,9	3,0	1,1
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	2 926,8	3 355,5	428,7

## 2022-yil yanvar-iyul oylarida Kislorod ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yil yanvar-iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 101,2 ming m<sup>3</sup> kislorod ishlab chiqarildi. Kislorod ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,6 % ga ko'paygan.



## Argon ishlab chiqarish sanoati


Viloyatimizda 2022- yilning yanvar-iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 74,1 ming m<sup>3</sup> argon ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 (m) ga ko'paygan.



2022-yil yanvar-iyul oylarida


**Azot ishlab chiqarish**

2022-yilning yanvar-iyul oylarida jami 440,8 ming m<sup>3</sup> azot ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 60 (m) ga ko'paygan.



**Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish**

2022-yilning yanvar-iyul oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 3 356 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,6 % ga ko'paygan.





### Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 77,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 4,4 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 75,8 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 5,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 29 875,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 64,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 339,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 062,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 127,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 70,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 688,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 104,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 539,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 155,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,3 % ni, fizik hajm indeksi 118,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 269,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 811,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 32,3 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6 296,9	6 742,8	445,9
Issqlik energiyasi, ming gkal	2 598,4	2 829,2	230,8

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	34 603,6	40 210,1	5 606,5
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	25 482,0	37 007,6	11 525,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 145,2 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 116,2 % ni tashkil etdi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 530,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyul oylari mos davriga nisbatan 109,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlari




2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 1 039,6 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,6 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda Karmana tumanida (130,5 %), Navoiy shahrida (107,8 %), Qiziltepa tumanida (105,0 %) va Navbahor tumanida (103,8 %) yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

#### Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 41,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 58,9 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 42,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 57,7 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 106,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 112,2 % ni tashkil etdi.







### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 25,0 %, shuningdek, Navoiy shahri 21,9 % ni, Qiziltepa tumani 13,3 % ni, Xatirchi tumani 12,0 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishi-ning viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 28,2 %, shuningdek, Navoiy shahri 20,1 % ni, Xatirchi tumani 11,7 % ni, Navbahor tumani 9,7 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

### Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 24,4 % ni va Qiziltepa tumanida 20,7 % ni tashkil etdi.

#### Navoiy viloyati

815,0 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyul

949,5 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-iyul

1 039,6 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyul



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati  
mlrd. so'm



### Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 85,3 % ni, shuningdek, Karmana tumaniga 9,8 % ni hamda Qiziltepa tumaniga esa 1,5 % ni tashkil etdi.



### Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 3 817 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 818 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,4 %) Navoiy shahriga, 636 tasi (16,7 %) Karmana tumaniga, 474 tasi (12,4 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.

